

## Tug`Ma Yurak Nuqsonlari Bilan Yangi Tug`Ilgan Bolalarda Exokardiografik Ko`Rsatkichlarini Aniqlash

Saidova Sadoqat Yo`Ldoshovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** Taqdim etilayotgan ilmiy ishda bolalarda tug`ma yurak nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, asoratlari haqida adabiyotlardan izohlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** yurak, EXOKG tekshiruv.

### Mavzuning dolzarbligi

Tug`ma yurak nuqsonlar zamonaviy pediatriyaning asosiy muammolaridan biridir. [9].

Tug`ma yurak nuqsonlari bolalarda rivojlanish nuqsonlarining eng keng tarqalgan guruhidir va hozirgi kunda o`limning asosiy sababi bo`lib qolmoqda. [1].

Tug`ma yurak-qon tomir nuqsonlari tug`ma yurak nuqsonlari (TYN) deb atalib, tug`ilgandan boshlab mavjud bo`lgan yurak yoki asosiy qon tomirlarining anormal shakllanishi natijasida yuzaga keladigan yoki tug`ilgandan keyin istalgan vaqtda namoyon bo`ladigan yoki umuman namoyon bo`lmasligi mumkin bo`lgan tizimli muammolar sirasiga kiradi. Tirik tug`ilgan bolalarda tug`ma yurak nuqsonlarning umumiy darajasi 0,8% ni tashkil etadi. [5,8].

Yurak faoliyatini baholash, shu jumladan fizik tekshiruvlar, tug`ilgandan keyin yangi tug`ilgan chaqaloqlar uchun bajarilgan, ammo asimptomatik, sindromli bo`lmagan yurak shovqinlari bo`lgan yangi tug`ilgan chaqaloqlarda yurak xurujini tashxislash uchun ExoKG-dan foydalanish munozaralarga sabab bo`ldi. [7].

Yangi tug`ilgan chaqaloqlar uchun yurak faoliyatini dastlabki baholash bu yurak auskultatsiyasi, oilada yurak-qon tomir kasalliklari tarixini olish va puls oksimetri yordamida tekshirishdan iborat. Birlamchi yurak shovqinini baholash uchun ExoKG bir vaqtning o`zida amalga oshiriladi [2].

Diagnostik potensialning pastligidan qat`iy nazar, qo`shimcha baholash sifatida elektrokardiogramma, ko`krak qafasi rentgenogrammasi o`tkaziladi. [4,6]. Ushbu tizimli tekshiruv ultratovush apparati orqali amalga oshiriladi. Barcha bolalarda yurakni exokardiografik tekshiruv neonatologlar tomonidan amalga oshirilishi talab qilinadi [3].

**Tadqiqot maqsadi.** Buxoro viloyatida tug`ma yurak nuqsonlari bilan tug`ilgandan 1 yoshgacha bolalar exokardiografik parametrlarni o`rganish.

### Tadqiqot material va usullari

Mazkur ishda Buxoro viloyatida yangi tug`ilgandan 1 yoshgacha tug`ma yurak nuqsoni bilan tug`ilgan bolalarda exokardiografik tekshiruv tahlili taqdim etilgan.

## Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda aorta (AO) kengligi 9,0 mm dan 12,0 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $10,5 \pm 0,2$  mm ni tashkil etdi, shu yoshdagi tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda aorta (AO) kengligi 7,0 mm dan 13,2 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $11,3 \pm 0,5$  mm ni tashkil etadi.

Yangi tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda esa chap bo'lmacha (ChB) kengligi 9,0 mm dan 13,1 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $11,4 \pm 0,2$  mm ni tashkil etdi, tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda esa chap bo'lmacha (ChB) kengligi 7,0 mm dan 14,1 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $12,6 \pm 0,2$  mm ni tashkil etadi.

Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda o'ng qorincha (O'Q) devorining qalinligi 6,1 mm dan 11,8 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $10,8 \pm 0,7$  mm ni va shu yoshdagi tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda o'ng qorincha (O'Q) devorining qalinligi 8,8 mm dan 12,8 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $11,6 \pm 0,8$  mm ni tashkil etdi.

Qorinchalararo to'siq (QT) devorining qalinligi sog'lom qiz bolalarda 4,5 mm dan 6,9 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $5,5 \pm 0,1$  mm ni tashkil etdi. Qorinchalararo to'siq (QT) devorining qalinligi tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda esa 4,0 mm dan 7,1 mm gacha o'zgarib, o'rtacha  $5,7 \pm 0,4$  mm ni tashkil etdi.

Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda oxirgi diastolik kattalik (ODK) 14,5 mm dan 16,8 mm gacha o'rtacha  $15,1 \pm 0,4$  ni tashkil etdi, 0 yoshdan 1 yoshgacha bo'lgan tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda esa oxirgi diastolik kattalik (ODK) 11,5 mm dan 22,1 mm gacha o'rtacha  $17,6 \pm 0,4$  ni tashkil etdi.

Shu yoshdagi sog'lom qiz bolalarda oxirgi diastolik hajm (ODH) 5,5 mm dan 10,1 mm gacha o'rtacha  $7,1 \pm 0,5$  mm ni tashkil etsa, oxirgi diastolik hajm (ODH) tug'ma yurak nuqsoni bor qiz bolalarda 4,5 mm dan 11,6 mm gacha o'rtacha  $8,1 \pm 0,4$  mm ni tashkil etdi.

Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda oxirgi sistolik hajm 8,0 mm dan 11,9 mm gacha o'rtacha  $10,8 \pm 0,2$  ni tashkil etdi. Oxirgi sistolik hajm (OSH) Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda esa 7,0 mm dan 14,0 mm gacha o'rtacha  $11,8 \pm 0,2$  ni tashkil etdi.

Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda yurakning zarb hajmi (YZH) 78,0 % dan 88,0 % gacha o'rtacha 83,6 % ni tashkil etdi tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda yurakning zarb hajmi (YZH) 69,0 % dan 91,0 % gacha o'rtacha 88,6 % ni tashkil etdi.

Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda yurak qisqarish chastotasi (YQCh) 5,1 ml dan 9,6 ml gacha, o'rtacha  $8,8 \pm 0,2$  ml ni tashkil etdi. Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda yurak qisqarish chastotasi (YQCh) 5,1 ml dan 11,0 ml gacha, o'rtacha  $9,8 \pm 0,4$  ml ni tashkil etdi.

Oxirgi sistolik hajm (OSH) sog'lom qiz bolalardagi ko'rsatkich 1,0 ml dan 4,4 ml gacha o'rtacha  $3,4 \pm 0,1$  ml ni tashkil etdi Oxirgi sistolik hajm (OSH) tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda bu ko'rsatkich 1,0 ml dan 5,0 ml gacha o'rtacha  $4,2 \pm 0,2$  ml ni tashkil etdi.

Yangi tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan sog'lom qiz bolalarda bu hajm 4,0 ml dan 6,0 ml gacha o'rtacha  $5,1 \pm 0,1$  ml ekanligi aniqlandi. Yangi tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda esa yurakning zarba hajmi (YZH) 3,0 ml dan 10,0 ml gacha o'rtacha  $6,1 \pm 0,1$  ml ekanligi aniqlandi.

Yurak qisqarish soni (YQS) sog'lom qiz bolalarda 150 ta dan 153 ta gacha o'rtacha 151 ta ekanligini isbotlandi. Tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ilgan qiz bolalarda yurak qisqarish soni (YQS) 125 ta dan 169 ta gacha, o'rtacha 158 ta ekanligini isbotlandi.

Mitral klapanda (MK) qon oqimining tezligi sog'lom qiz bolalarda 1,48 m/s dan 1,53 m/s gacha bo'lib, o'rtacha  $1,50 \pm 0,3$  m/s ga teng, mitral klapanda (MK) qon oqimining tezligi tug'ma yurak

nuqsoni bilan tug`ilgan qiz bolalarda esa 0,94 m/s dan 1,55 ga m/s gacha bo`lib, o`rtacha  $1,53 \pm 0,3$  m/s ga teng .

Nihoyat trikuspidal klapanda (TK) qon oqimi hajmi sog`lom qiz bolalarda esa 0,90 m/s dan 0,93 gacha bo`lib, o`rtacha  $0,92 \pm 0,3$  m/s tashkil etdi, tug`ma yurak nuqsonli qiz bolalarda esa 0,90 m/s dan 1,24 gacha bo`lib, o`rtacha  $1,12 \pm 0,3$  m/s tashkil etganligi aniqlandi.

O`pka poyasida (O`P) qon oqimining tezligi sog`lom qiz bolalarda 9,1 m/s dan 12,1 gacha bo`lib, o`rtacha  $11,2 \pm 0,2$  m/s ni tashkil etadi.

Tug`ilgandan 1 yoshgacha bo`lgan tug`ma yurak nuqsoni bilan tug`ilgan qiz bolalarda o`pka poyasida (O`P) qon oqimining tezligi 7,1 m/s dan 14,1 gacha bo`lib, o`rtacha  $12,6 \pm 0,4$  m/s ni tashkil etadi.

### **Xulosa**

Olingan natijalarga ko`ra, tug`ma yurak nuqsoni bilan tug`ilgan bolalarda exokardiografik natijalar sog`lom tug`ilgan bolalar exokardiografik natijalardan yuqori ekanligi ma`lum bo`ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yuldashevna, S. S. (2022). Analysis of Factors for the Occurrence Congenital Heart Defects in Children. *Miasto Przyszłości*, 24, 179-181.
2. Saidova, S. Y. (2022). Echocardiographic and Anthropometric Analyzes of Children Born with Tetrad of Fallot. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 369-373.
3. Saidova, S. Y. (2021). Revealing echocardiographic and anthropometric changes in children from birth to 3 years old with congenital heart defects. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1071-1075.
4. САИДОВА, С. Ю. (2022). ВЫЯВЛЕНИЕ ЭХОКАРДИОГРАФИЧЕСКИХ И АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ У ДЕТЕЙ, РОЖДЕННЫХ С ВРОЖДЕННЫМИ ПОРОКАМИ СЕРДЦА (0-1 ГОДА). *ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ*, 7(3).
5. Саидова, С. (2021). Юрак туғма нуқсонлари билан янги туғилгандан 3 ёшгача булган болаларда антропометрик ўзгаришларни аниқлаш. *Общество и инновации*, 2(2/S), 439-445.
6. Farxodovna, X. M. (2022). Comparative Analysis of the Morphofunctional State of the Fetoplacental System in Obese Pregnant Women. *INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES*, 1(5), 27-30.
7. Farxodovna, X. M. (2022). Morphological Features of the Structure of the Fetoplacental System in Pregnant Women against the Background of Obesity. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 1(9), 100-104.
8. Саидова, С. (2021). Выявление антропометрических изменений у детей от рождения до 3-х лет с врожденными пороками сердца. *Общество и инновации*, 2(2/S), 447-454.
9. Saidova, S. Y. (2021). A study regarding revealing echocardiographic and anthropometric changes in children from birth to 3 years old with congenital heart defects. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 395-399.